



*O'zbek xalq dostonlari*

“SHARQ” NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK  
KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2006

Aytuvchi: **Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li**

Nashrga tayyorlovchilar:

**To'ra Mirzayev va Zubayda Husainova**

T a h r i r h a y ' a t i:

**Omonulla Yunusov (hay'at raisi), Ahror Ahmedov (hay'at raisi o'rinbosari), Mamatqul Jo'rayev, Erkin Malikov (hay'at kotibi), To'ra Mirzayev, Abiir Musoqulov, Muhammadali Qo'shmoqov, Shomirza Turdimov, Ibodulla Shoymardonov**


R a s s o m:

**Temur Sa'dullayev**



**Go'ro'g'li:** O'zbek xalq dostonlari / Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li; Tahrir hay'ati: O. Yunusov, A. Ahmedov, M. Jo'rayev va boshq./ Rassom T. Sa'dulla. — T.: Sharq, 2006. — 448 b.

“Go'ro'g'li” turkumi dostonlari yuzga yaqin xilma-xil mazmundagi asarlarni o'zida birlashtirgan ulkan silsiladir. Xalq baxshilari bu turkumga kiruvchi dostonlarni sevib kuylab kelganlar. Ushbu jildga Rahmatulla shoir Yusuf o'g'lidan yozib olingan 27 doston kiritildi. Ularda afsonaviy xalq qahramonining tug'ilishi, uning bahodirona yoshligi, jasoratlarga to'la hayoti, ozodlik o'lkasi — Chambil shahrining bunyod etilishi, asrandi farzandlar — Hasanxon va Avazxonlarning Chambilga keltirilishi, ularning bahodirliklari turli-tuman sarguzashtli voqealar girdobida tasvirlanadi. Dostonlar qahramon va sevimli yor sadoqati, ota-ona va farzand burchi, birodarlik va do'stlik, ona yurtga muhabbat masalalaridan bahs etadi. Har bir doston badiiy mukammalligi va jozibadorligi bilan kitobxonni o'ziga jalb eta oladi.

**BBK 82.3(SU)**



# BOZIRGON





**R**ayhon arabning Bozirgon degan jiyani bor edi. Ma'nosi bozorchi karvon degani edi. Bozirgon arab qirqtacha tuya qilib, shaharma-shahar narsa ortib, karvonlik qilib, Arabdan Xurosonga, Xurosondan Arabga qatnab yurar edi. Shuytib, Bozirgon arab Xurosonga kelganlarida To'tiguloy bilan ham tanishib, Shoniyoz arab bilan ham bordi-keldi bo'lib turar edi. Shu orada Bozirgon arabga Zabiliston mamlakatining havosi yoqib qolib, arabdagi xesh-u taborlarini olib, Zobilistonga ko'chib kelib, ko'p dunyo xarj qilib, hovli-haram, bog'-u rog'lar bino qildirib, hovlisida qancha xizmatkorlar va kanizaklar qilib qo'yibdi. Keyin tuyalarining sonini yuzga yetkazib, Hindiston, Hafdarxon, Hashdarxon shaharlariga, undan o'ris yurtlarigacha borib, qaytishida Urganch, Buxoro, Samarqand, Toshkentlar bilan aylanib, Balx-u Badaxshon, Xunxor shaharlaridan o'tib, qaytib Zobilistonga yetibdi. Hovlisida bir oycha dam olib, yana safarga chiqibdi. Bozirgon arabning har murti shopday, og'zi ko'hna qopday, ko'zlari kosaday, kipriklari sixday, burnining teshiklari tulkinining iniday, boshi chayladay, har panjalari o'n yashar boladay bo'lib, tuya ko'tara olmanidan bir filni olti oylik kurraday qilib minib yurar edi. Bozirgon arab qayerga borsa ham u yerning beklari, oliqchi-soliqchilari qo'rqib, qoshiga yo'lamas edi. Shuncha zo'rlik, qaddu qomat bilan Bozirgon arab insofli odam bo'lib, o'z ixtiyori bilan har yurtning rasmi bo'yicha oliq-solig'ini bir tiyin qoldirmay, o'zi to'lab ketar edi.

Kunlardan bir kun Xunxor shoh Bozirgon arabni mehmonlikka chaqirib: "Go'ro'g'li murdor deganni eshitgan bo'lsang kerak. U sening Rayhon arab tog'angning qizini olib qochib, alamini olti qilgan edi. Undan keyin sizlarning avlodingizdan Bektosh arabni jo'rtaga do'st qilib, hiyla bilan otga sudratib o'ldirgan edi. Sen endi shuncha kuch-quvvating bilan o'sha Go'ro'g'li murdordan o'chingni olmasanmi? Hali ham vaqt kech emas. Agar sen Go'ro'g'li murdorni borib o'ldirsang, butun xalq senga rahmat aytadi. Undan keyin seni men o'zimga bosh vazir qilib, shu Xunxorda qanday qizni xohlasang, olib berar edim", — dedi. Xunxor shohining bu so'ziga Bozirgon arab achchig'lanib: "Men podshohlik shavkatini xohlaganimda, allaqachon arab yurtini o'zimga tobe qilib olar edim. Agar men uylanishni xohlaganimda, arab yurtida ham Xunxor yurtidagi suluvlarcha suluv qizlar ko'p edi. Xudo har kimni har ko'ygga soladi. Men vazirligingni ham, qizlaringni ham xohlamayman. Mening o'zimga shu yurishim yetadi. Men Go'ro'g'liga ham indamayman, gina-kudurat degan narsalar o'zingga nasib qilsin. Aqling bo'lsa, ikkinchi menga bunday dema", — deb Xunxorning oldidan chiqib ketdi. Shundan tuyalarini tirkab, safarga jo'nab ketdi. Endi Go'ro'g'li sultondan eshitsu.

Go'ro'g'li sulton bir kuni shikordan qaytib kelib, mehmonxonasining oldiga tushdi. Nega desangiz, Go'ro'g'li sultonga Oydin Yusuf piri mayxonasini buzib, o'rniga mehmonxona qilishlikni tayinlagan edi. Shuytib, Go'ro'g'li sulton mayxonasining o'rniga katta bir mehmonxona soldirgan edi. Parilar qanday, badandagi jonday, bihishtning shamshodiday, sarv bo'yli, muloyim xo'yli, navbat bilan qadrdon yorini otdan qo'ltiqlab tushirib olar edi. Bugun Misqol pari quyoshday tovlanib, qoqinib, sollanib: "Keling, to'ram, hormang, assalomu alaykum, tirishdingizmi, xodimi qilib uqalab qo'yayinmi", — deb Go'ro'g'li sultonni qo'ltiqlab, G'irko'kning ustidan tushirib olib, mehmonxonaga kirgizib, darrov yog'li patir, qand-u novvatlar bilan achchiq ko'k choy keltirib, dasturxonni ochib, labini tishlab, biqinini ushlab, noz qilib, odob bilan Go'ro'g'li sulton yoriga qirmizi choynakdan bolg'ami piyolaga choy suzib berib o'tirdi. Shunda Go'ro'g'li sultonning kayfi qonib, dimog'i choq bo'lib, qo'lga sozini olib, xonish qilib, bir so'z dedi:

Baland-baland tog'laringdan  
Oshdim armonim qolmadi,  
G'ariblarni ota elga  
Qo'shdim armonim qolmadi.

Borib Badbaxt tog'dan oshdim,  
Daryo kabi to'ldim, toshdim,

Vafodorlarga yondoshdim,  
Bordim armonim qolmadi.

Tog' ustida o'ynab otim,  
G'irko'k degan xonazotim,  
G'animlarni quvna tutdim,  
Tutdim armonim qolmadi.



Gurgon otli daryo kechdim,  
Musofirlik obin ichdim,  
Iram borib pari quchdim,  
Quchdim armonim qolmadi.

Xabar oldim Isfahondan,  
O'qim otdim par kamondan,  
Ot hatlatib Vayangandan  
Keldim armonim qolmadi.

Ot choptirib ovut-ovut,  
Bo'ktarilib po'lat sovut,  
Dushmanlarga soldim chovut,  
Quvdim armonim qolmadi.

Shavkatimdan ko'nglim to'ldi,  
Shashtim kelib, baxtim kuldi,

Bu so'zni Go'ro'g'li sultondan Misqol pari eshitib, bir necha joydan timsol keltirib, Go'ro'g'li sulton yoriga qarab, zulfini burab, marg'ulini tarab, bir so'z dedi:

Bundayin deb katta ketma, sultonim,  
Bir nechaning biron armoni bordir,  
Sulaymon davlatli shahanshohning ham,  
Albatta bir istak-armoni bordir.

Bu yolg'onchi poyoni yo'q dunyoda,  
Birovlar kam bo'ldi, birov ziyoda,  
Shuytib hech bir kimsa maqsad-muroda,  
Yetolmay albatta armoni bordir.

Tiriklik hech kimga vafo etmadi,  
Bir nechalar orzusiga yetmadi,  
Murod-maqsad tutqasidan tutmadi,  
Shuytib har bandaning armoni bordir.

Bu so'zni Go'ro'g'li sulton Misqol paridan eshitib, buning bu so'zi menga kinlab aytildimi, deb biroz yorining so'zi ko'ngliga malol kelib, Misqol pariga qarab, bir so'z dedi:

Menga tersdir degan so'zing,  
Na holing bor, aytgin endi.  
Armon bilan bahor, yozing  
O'tar bo'lsa, aytgin endi.

Yoshligimdan sensan yorim,  
Tanlab olgan vafodorim,  
Holing bilmay, yo'q qarorim,  
Na holing bor, aytgin endi.

Chambildayin shahrim bo'lsa,  
Qirqta aydahorim bo'lsa,

Avaz, Hasan o'g'lim bo'ldi,  
Shuytib armonim qolmadi.

Novvot qo'shib ko'k choy ichdim,  
Shunday qilib bahrim ochdim.  
Yunus-Misqol pari quchdim,  
Quchdim armonim qolmadi.

Yetti qatla julqurs to'shab,  
Yetmish alvon ne'mat oshab,  
Chambilbelda yoshim yashab,  
Hargiz armonim qolmadi.

Go'ro'g'liman toshib-to'lib,  
So'z aytaman shashtim kelib,  
Sizlar bilan o'ynab-kulib,  
Aslo armonim qolmadi.

Olqor yurar haprak tashlab qiyoda,  
G'anilar faqirdan emas ziyoda,  
Aldanib yolg'onchi foniy dunyoda,  
Qorunday boyning ham armoni bordir.

Misqol aytur kim yetibdi muroda,  
Jononlar ilgidan ichganman boda,  
Birov sulton, birov mungliq aftoda,  
Barining dunyodan armoni bordir.

To'ram, sen ham bunday qaynab-jo'shmagin,  
Bul havaslik yo'llariga tushmagin.  
Payg'ambarlar armon qilib o'tganda,  
O'zdan ketib sen ham haddan oshmagain,  
Sening ham, mening ham armonim bordir.

Dushmanlarga zo'rim bo'lsa,  
Tag'i nadir, aytgin endi.

Senday suluv yorim bo'lsa,  
Zarchaman gulzorim bo'lsa,  
Yunus zulfakdorim bo'lsa,  
Na holing bor, aytgin endi.

Yurt-olamga ketsa otim,  
G'irko'k mening xonazodim,  
Taka-Yovmit mamlakatim,  
Boz nima kam, aytgin endi.



Go‘ro‘g‘li der nom qozondim,  
Sharob ichdim, butkul qondim,

So‘zlaringdan kuydim, yondim,  
Har na holing aytgin endi.

Misqol yorining bu so‘zini eshitib, ko‘nglida: “Go‘ro‘g‘li vallamat ehtimol meni farzand ko‘rmay o‘tayapman, deb shu so‘zlarni aytgandir-ov, — degan bo‘lsa kerak”, — deb miyig‘ida kulib, zulfini burib, marg‘ulini tarab, Go‘ro‘g‘li sulton yoriga qarab, bir so‘z dedi:

Sulton bo‘lib Taka-Yovmit eliga,  
Ot o‘ynatib chiqding Asqar beliga,  
Bozirgon qo‘nganda Hovdak ko‘liga,  
Chambilbelda g‘ofil qolding, Go‘ro‘g‘li.

Mahshar bo‘lmay Asqar tog‘i qulamas,  
Huzuringga chin dushmanlar kelolmas,  
Yurting kechib, senga xiroj to‘lamas,  
U Bozirgon zo‘rman deyib, Go‘ro‘g‘li.

Asli arab, o‘zi bir katta karvon,  
Shahzoda urug‘li avlodi Rayhon.  
Bo‘yni yo‘g‘on polvon o‘zi Bozirgon,  
Sultonliging ko‘zga ilmas, Go‘ro‘g‘li.

Huzurman o‘tirsang Chambil belingda,  
Lof-u qof yog‘ilib og‘zu tilingda,  
Armonim yo‘q dema hali, Go‘ro‘g‘li,  
Boj to‘lamay, dushman o‘tsa elingdan.

Man-man deya ul o‘zidan ketgandir,  
Turkman viloyatin bosib o‘tgandir.  
Chambil kirmay, Hovdak ko‘lda yotgandir,  
Asli ko‘zga ilmay seni, Go‘ro‘g‘li.

Misqol pari ko‘p narsani biladi,  
Shuytib bilganini bayon qiladi,  
Boj to‘lamay, dushman yursa elingda  
Davlatingga bilsang zavol bo‘ladi.

Go‘ro‘g‘li sulton yoridan bu so‘zni eshitib, darrov otlanib, Bozirgon arabning izidan tushmoqchi bo‘lib chirpina berdi. Shunda Misqol pari: “Sultonim, men senga avvalgi o‘tgan voqeani aytdim. Bozirgon arab bultur shu turkman viloyatini oralab, Hovdak ko‘liga qo‘nib, Chambilga kirmay, chetlab o‘tib ketgan edi. Hozir uni Xunxorshoh mehmon qilib, sening bilan urishmoqqa gij-gijlayapti. Ammo Bozirgon arab Xunxorshohning gapiga ko‘nmay, chiqib o‘ris yurtlariga qarab ketdi. Shunga qaraganda, Bozirgon arabning qasdi yo‘qqa o‘xshaydi. Shunday ham bo‘lsa, begona kishi, mardlar kurashib do‘st bo‘ladi, deganday, avval borib Bozirgon arab bilan kurashib, keyin uning bilan do‘st bo‘l. Taxminan Bozirgon arab yana o‘n, o‘n besh kunda shu yoqqa qarab o‘ris yurtlaridan qaytsa kerak”, — dedi. Bu maslahatlarni Go‘ro‘g‘li sulton eshitib, qirq yigiti bilan maslahatni bir joyga qo‘yib, Bozirgon arabning oldidan o‘rab chiqmoqchi bo‘ldi, Go‘ro‘g‘li sulton bosh, qirq yigitlar yo‘ldosh bo‘lib, bari birday bo‘lib, chirpingan sherday bo‘lib, Chambildan chiqib jo‘namakchi bo‘la berdilar. Bundan avval Go‘ro‘g‘li sulton Oydin Yusuf piring xizmatiga bir necha marta borib kelgan edi. Piri Go‘ro‘g‘li sultonga ko‘p nasihatlar qilgan edi. “Karomat ko‘rmasa, tush degan gaplar ham bo‘lmag‘ur narsa. Unday kishilarni pishmagan, deb aytish mumkin. Sen ham karomatli so‘tangni bir yerga ko‘mib qo‘y. Oxir zamonda u so‘ta bir necha ming bo‘lib ko‘karib chiqar. Hozircha bunday narsalar odamni xato yo‘llarga boshqarishi mumkin”, — deb aytib, undan keyin Go‘ro‘g‘li sulton karomatli so‘tasini bir joyga ko‘mib, yo‘q qilgan edi. Endi ochiqcha polvonlikdan boshqa hech ish qila olmas edi. Shunday ham bo‘lsa, o‘z kuchiga o‘zi ishongan Go‘ro‘g‘li sulton qirq yigitlari bilan yo‘lga tushib, jo‘nay berdi:

Chambilbelning aylanasi daladi,  
Dala-dasht jaynagan butkul loladi,  
Bahor chog‘i tongda kezgan yigitlar,  
Bu daladan tiniq bahra oladi.

Ishonmasa har kim shoir so‘ziga,  
U yerlarga o‘zi borsa ko‘radi.

Chambilbelning pastki yog‘i saradi,  
Shu pastlikda bek Go‘ro‘g‘li boradi,

Bir nechaning asli ichi qoradi,  
Bir necha g‘aribning ko‘ngli yaradi,  
Boziringonga talab solib Go‘ro‘g‘li,  
Qirq yigitman yasov tortib boradi.



O'ris yo'li pasmak, yassi daradi(r),  
Ishonmagan kishi borib ko'radi.  
Boziringonga talab solib Go'ro'g'li,  
Qirq yigitman yasov tortib boradi.

Urganchining past botqog'i sho'radi(r),  
U yerlarda tulki, shag'ol yuradi,  
Boziringonga talab solib Go'ro'g'li  
Qirq yigitini yasov tortib boradi.

Biyobonda o'tlab yurgan kurradi(r),  
U yerlardan kuchli karvon yuradi,  
Boziringonga talab solib Go'ro'g'li,  
Qirq yigitman yasov tortib boradi.

Keta bersa cho'lning tubi kengayar,  
Bora-bora chap ishlar ham o'ngayar,

Shunda Go'ro'g'li sulton bir bellik joydan qarab, nar yoqda no'g'oy elining buldirab turganini ko'rib, G'irko'kning jilovini tortib, gidirayib, qirq yigitiga: "Sizlar endi shu belning ustida yo'ldan chekkaroqni olib, dam olib, payt poylab yotinglar. G'irko'k ham shu oldilaringda qolsin. Men o'zim bir oriq yo'rg'a topib minib, Bozircon arabning kelar yo'liga kuzatuvchilik qilib kelay. Oqibati nima bo'ladi, qudag'ay kimga qo'y so'yadi, u yog'ini olloh biladi", — deb turganida, bir qozoq yo'lovchi kelib qolib, u qozoqning otini ikki yuz tanga garovga olib, qozoqni qirq yigitning oldiga qo'yib, otini Go'ro'g'li sulton minib, Bozircon arabning kelish yo'lini poylamoqqa uzoqdan turib, Bozircon arabni kuzatib, qancha kuchga ega ekanini chaqlamoqqa jo'nab ketdi.

Shu o'rtada juda ham katta bir karvon yo'li bor edi. Ana shu yo'l bilan o'ris, no'g'oy yurtlaridan chiqqan karvonlar o'tib, Urganch yoqlarga ketar edi. Go'ro'g'li sulton: "Qachon o'tsa ham, Bozircon arab shu yo'ldan o'tadi", — deb no'g'oy elining toza ichkarisiga o'tib, bir daryobodning bo'yiga yetib, ostidagi yo'rg'ani qo'riqqa tushovlab qo'yib, o'zi yo'lga yaqin bir jangallikning orasiga kirib, pusinib yo'ldan o'tgan-ketganlarni kuzatib yota berdi.

Oradan ikki kun o'tgandan keyin o'zidan o'zi yo'ldan hech kim o'tmay qoldi. Go'ro'g'li sulton ko'nglida: "Bugun bir gap borga o'xshaydi. Bozircon arabning o'tishini eshitib, yo'lovchilar qo'rqqanidan Bozircon arabga yo'lni bo'shatib bergan bo'lsa kerak. Taxminan Bozircon arabning zo'rlik dongg'i hamma yoqqa yoyilganga o'xshaydi", — deb takaga tashlangan qoplonday bo'lib, jangaldan yo'lga ko'z uzmay, qarab yota berdi. Bir pillalar oldida uch filni jo'ppay qilib bir-biriga zanjirlab, ustiga ko'ndalangiga qilib bir chorpoyni bog'lab, chorpoyni ustiga katta bir chodir o'rnatib, chodirning ichida o'zi yonboshlab yotib, fillarning keyiniga yuzta nor tuyani tirkab, fillarni haydab, Bozircon arab kela berdi. Bir pilla Bozircon arab kelib, daryoning nargi labiga tushib, fillarning bir yeriga qistirilgan, yuzi o'tovning o'rmini olguday katta bir ketmon bilan abil-g'ubil bir o'choq kovlab, tag'i bir filning bir yonboshiga osib qo'ygan qirq quloqli bir qozonni olib keltirib, o'choqqa osib, o'zining tuyalarini o'ldirishga ko'zi qiymay, ovqatlikka so'ymoqqa bir nima izlab, qo'riqda o'tlab yurgan, Go'ro'g'li sulton minib borgan yo'rg'ani tutib, tag'i bir no'g'oyning otini tutib, ikkovini ikki tustovuqday qilib, qo'lida shalbiratib kelib, bo'lak-bo'lak qilib qozonga solib, o'choqqa o't qo'yib, qozonni qaynatib, o'choqdan tekislikka tushirib olib, go'shtlarni junbozlab og'ziga tiqib, gumpillatib yutib yuborgan tovushi daryoning barcha betiga kela berdi. Go'ro'g'li sulton ko'nglida: "Bir zo'r baloga yo'liqdim-ov. Ha, pirim, o'zing qo'lla-da", — deb turibdi. Bozircon arab bo'lsa, qornini to'ydirib olib, undan keyin tuyalarini to'rtta-to'rtta qilib ko'tarib daryodan bergi yoqqa o'tkazib qo'ydi. Undan keyin fillarni yetaklab o'tkazib, tag'i ortinib, hamishagisiday chorpoyni chiqib o'tirib, yo'lga tushib kela berdi. Go'ro'g'li sulton bu yoqdan aylanib, Bozircon arabning oldidan chiqib, to'xtang, arzim bor", — deb Bozircon arabga qarab, mo'ylovini burab, bir so'z dedi:

Bir qarashda past bo'lsa ham uzoqlar,  
Qirga o'xshab baland tortib do'ngkayar.

Ko'p yursa toladi bedovning beli,  
Cho'zsa, cho'zayadi sho'irning tili,  
Uzoqdan bildirab, qat-qat qorayib,  
Elaslab ko'rindi no'g'oyning eli.

Chin so'filar tama qilib qidirmas,  
Haqqoniy so'z haq yurakni sidirmas,  
Bir yoqqa otlangan yo'lda gidirmas,  
No'g'oy eli ko'ringan so'ng Go'ro'g'li  
Yasov tortib yurishlikni qildi bas.

Ot chopilar baland bilan pastiga,  
Chin botirlar nayza tutar dastiga,  
O'n besh kecha-kunduz tinmay yo'l tortib,  
Yetishdilar no'g'oy elning ustiga.

Ey, Bozirgon, eshit mening arzimni,  
Senga besh-olti so‘z aytgani keldim.  
Ko‘zga ilmay yurma ko‘rib tarzimni,  
Aytar so‘zim senga aytgani keldim.

Dam bu damdir, o‘zga damni dam dema,  
Qomatimni kichik ko‘rib xom dema,  
Sen o‘zingdan boshqalarni kam dema,  
Shuytib besh-olti so‘z aytgani keldim.

Keng ekan dunyoning tubi, qidirsang,  
Men gapirsam, sen yo‘lingda ketarsan,

Bozirgon arab Go‘ro‘g‘li sultonning bu so‘zini eshitib, fillarini to‘xtatib: “Mana to‘xtadim, bolakay, gaping bo‘lsa, gapir”, — deb achchiq urib, Go‘ro‘g‘li sultonga qarab, bir so‘z dedi:

Chiltiyib so‘zlagan, hay-hay bolakay  
Mana men to‘xtadim, degin arzingni,  
Tirjaytmasdan bodringday tarzingni,  
Mana men to‘xtadim, degin arzingni.

So‘zingga qarasam, so‘zchan balosan,  
Tarzingga qarasam, go‘dak bolasan,  
Aytgin, nima deysan, nima qilasan,  
Mana men to‘xtadim, degin arzingni.

Bilmayman nimadir asroring, holing,  
Yo qaroqchi bo‘lib egrimi yo‘ling.

Bozirgon arabning bu so‘zini Go‘ro‘g‘li sulton eshitib, ko‘nglida: “Ukag‘arning niqtab gapirishini-ycy”, — deb biroz o‘zini tetik tutib, jo‘rtagadan: “Men Chambildan kelgan elchiman”, — deb Bozirgon arabga qarab, bir so‘z dedi:

Tarzinga qarasang, murrik bolaman,  
Aslim bir donishmand, esi to‘laman.  
Arzimni eshitsang mening, Bozirgon,  
Chambilbeldan kelgan elchi bo‘laman.

Kichkina bo‘lsam-da asli baloman,  
Gurgan daryosiday toshib-to‘laman,  
Arzimni eshitsang mening, Bozirgon,  
Go‘ro‘g‘lidan kelgan elchi bo‘laman.

Sultonimning har amrini qilaman,  
Payti kelsa, aziz jonni olaman.  
Arzimni eshitsang mening, Bozirgon,  
Chambilbeldan kelgan elchi bo‘laman.

G‘animlar boshiga g‘avg‘o solaman,  
Qirq yigitlar bilan doira chalaman,  
Arzimni eshitsang mening, Bozirgon.  
Go‘ro‘g‘lidan kelgan elchi bo‘laman.

Bir fasl falakni to‘xtatib tursang,  
Aytar so‘zim senga aytgani keldim.

Jasading yirikdir, qalin qobog‘ing,  
Shopil bo‘yi ekan har bir oyog‘ing,  
Katta ketma katta bilib siyog‘ing,  
Eshit, besh-olti so‘z aytgani keldim.

Yo‘ning uchi bilmam ushlar qay yona,  
Men kelaman kezib hassa tayana,  
Gartak to‘xtab, boqib tursang bu yona,  
Aytar so‘zim senga aytgani keldim.

Kichkina bo‘lsang ham o‘tkirdir tiling,  
Mana men to‘xtadim, degin arzingni.

Nomard kattalarni ko‘zga ilmaydi,  
Shuytib o‘zi o‘z holini bilmaydi.  
To‘fon yog‘sa, to‘pig‘imga kelmaydi,  
Mana men to‘xtadim, degin arzingni.

Arab avlodiman, otim Bozirgon,  
Tag‘in-a tanimay bo‘lma pushaymon,  
Tirik ko‘milgandan yomondir yolg‘on,  
Mana men to‘xtadim, degin arzingni.

Podsholar o‘tkazar elga kuchini,  
Siyosatga kiyar tilla tojini.  
Arzimni eshitsang mening, Bozirgon,  
Go‘ro‘g‘libek bersin deydi bojini.

Bultur ham turkmandan kechib o‘tibsang,  
Man-manlikning yo‘llarini yirtibsang.  
Arzimni eshitsang mening, Bozirgon,  
Chet bilan Chambilga tushmay ketibsang.

Go‘ro‘g‘libek Bozirgonni bil, dedi,  
Ortgan-tortganini hisob qil, dedi.  
Turkman elatiga qadam qo‘ymasdan,  
To‘latib xirojin olib kel, dedi.

Karvon yurar uzoq dasht-u dalaman,  
Hisoblab molingga xiroj solaman.  
Go‘ro‘g‘lining buyrug‘i — shu, Bozirgon,  
Hozir jo‘nlab sendan haqim olaman.



Go‘ro‘g‘li sultonning bu so‘zini eshitib, Bozirgon arabning achchig‘i kelib, Go‘ro‘g‘li sultonga qarab: “Hali men shuncha mamlakatda yurib, o‘zligimdan boj bergan bo‘lsam ham, majburan hech kimga boj to‘laganim yo‘q. Borib, o‘sha Go‘ro‘g‘li sultoningga ayt. Boj kerak bo‘lsa, o‘zi kelib, mening bilan gaplashsin”, — deb shu so‘zni aytdi:

Lof urib sultonlik da‘vosin qilgan,  
O‘zini ko‘plardan yuqori bilgan,  
Shashti kelib shoh bo‘p qo‘sh pari olgan,  
Boj tilasa, o‘zi kelsin Go‘ro‘g‘li.

Senday kimsalarga qulluq qilmayman.  
Aytganlarning guruhidan bo‘lmayman,  
Shuncha yoshga kirib elma-el yurib,  
Birovni siz deganimni bilmayman.

Sen nimasan, bir kimsaning ko‘pasi,  
Gapirma, gapning yo‘qdir keragi,  
Asta qaytib, borib aytgin shohingga  
O‘zi kelib gaplashsin, bo‘lsa yuragi.

Bozirgon yo‘l uzra pul berib yurmas,  
Sendaychangilarni boshiga urmas,

Boj olsa, gaplashsin kelib Go‘ro‘g‘li,  
Bu karvon sen aytgan odaming ermas.

Sultonningning bilmam eli chalama,  
Yurtiga bormasdan xiroj olama,  
Pul desa, gaplashsin kelib Go‘ro‘g‘li,  
Boshqa yo‘qday seni pulchin qilama.

Asli o‘zi elga bitgan baloma,  
O‘tgan-ketganlarga ko‘zi olama,  
O‘zi kelsin, esi bo‘lsa, Go‘ro‘g‘li,  
Odam yo‘qday seni pulchin qilama.

So‘z aytaman ust-ustiga ulama,  
Hadding bilgin, mendan xiroj tilama,  
Pul desa, Go‘ro‘g‘ling kelsin oldima,  
Keta ber sen, hargiz menga yo‘lama.

Shunda Go‘ro‘g‘li sulton Bozirgon arabga qarab: “Ko‘p katta ketma, hali-zamon Go‘ro‘g‘li sulton qirq yigitlari bilan kelib, senga zo‘rligini ko‘rsatib qo‘yadi”, — deb shu so‘zni aytdi:

Ketma o‘zingdan, Bozirgon,  
Halizamon bo‘lasan yakson,  
Qirq yigitlari iyartib,  
Kelib qolsa Go‘ro‘g‘li sulton.

Sendaylarga navbat qo‘ymas,  
Sen nima kavak gupas,  
Endi ayla so‘zlaring bas,  
Kelib qolar Go‘ro‘g‘li sulton.

Iyargani qirqta nomdor,  
Har biri bir olg‘ir shunqor,

Jang kuni hujumga tayyor,  
Kelib qolar Go‘ro‘g‘li sulton.

Ko‘p gapning yo‘qdir hojati,  
Yelday uchar G‘irko‘k oti,  
Tog‘ni bosib siyosati  
Kelib qolar Go‘ro‘g‘li sulton.

So‘zim eshit, e Bozirgon,  
Pulchidirman aslim cho‘pon,  
So‘ngra bo‘larsan pushaymon,  
Kelib qolar Go‘ro‘g‘li sulton.

Bu so‘zni Bozirgon arab eshitib, Go‘ro‘g‘li sultonga qarab: “Hoy, bolakay, g‘indicha. Ko‘p haddingni bilmay o‘tlay berma. Go‘ro‘g‘li bo‘ldi, nima bo‘ldi. Agar Go‘ro‘g‘li sulton qirq yigiti bilan kelsa, bir mixloj berib, qirq yigit-pirq yigitlari bilan pachoqlab tashlayman-ku, bari enasini, amma, deb yalpayib o‘lib qoladi”, — dedi. Shunda Go‘ro‘g‘li sulton: “Qani, buni bir sinab ko‘ray-chi, shu aytganlaricha bormikan”, — deb Bozirgon arabga qarab: “Hoy, Bozirgon arab, ko‘p o‘zingdan ketib, Go‘ro‘g‘li sultonni anchayin odam deb o‘ylama. Mana, mening qo‘limdagi o‘q-yoy Go‘ro‘g‘li sultonniki. Menga hadya qilgan edi. Agar shu yoyini ko‘tarib, torta olsang, undan keyin Go‘ro‘g‘li sulton bilan sening kuchingni teng deb bilsa bo‘ladi”, — deb xitob qildi. Bozirgon arab: “Qani bo‘lmasa, Go‘ro‘g‘lining yoyini ber — ko‘ray-chi. Go‘ro‘g‘li qanchalik kuchga ega ekan”, — deb Go‘ro‘g‘li sultonning qo‘lidan o‘q-yoyini olib, chang‘irlatib tortib yubor-

di. “Zo‘rdan zo‘r chiqsa, tibir-tibir” deganday, shunday og‘ir mis yoy pishgan chiviqday Bozircon arabning qo‘lida moyshayib ketdi. Go‘ro‘g‘li sulton ichida: “Ukkag‘ar haddili zo‘r ekan”, — deb Bozircon arabning kuchiga qoyil bo‘lib: “Ana endi, aka, kuchingga qoyil bo‘ldim. Go‘ro‘g‘li sultoncha bor ekansan. Endi yoyimni ber. Men o‘z yo‘limga ketayin”, — dedi. Shunda Bozircon arab Go‘ro‘g‘li sultonga qarab, achchiq urib: “Hoy, bolakay, hali ham ko‘zing ochilgani yo‘qmi? Mening qo‘limga bir nima tushsa, kelib egasi olishi kerak. Yoyni senga Go‘ro‘g‘li bergan bo‘lsa, yana kelib o‘zi olsin. Endi senga yoy yo‘q”, — dedi. Shunda Go‘ro‘g‘li sulton Bozircon arabga qarab: “Gap bunday emas, aka. Men borib, Go‘ro‘g‘li sultonga yoyni Bozircon arab tortib oldi, desam, Go‘ro‘g‘li sulton Bozircon arab nomard odam ekan. Bo‘lmasa, mendan olmay, bir kuchsiz pulchinimdan tortib olarmidi, deydi”, — dedi. Bu so‘zni eshitgandan keyin Bozircon arab: “Ol, yoying o‘zingga nasib qilsin. Men nomardlikni yomon ko‘raman”, — deb Go‘ro‘g‘li sultonga qaratib otib yubordi. Go‘ro‘g‘li sulton yoyni olib, piyoda qirq yigitining oldiga borib, Bozircon arabni ta‘rif qilib, bir so‘z dedi:

Bozircon tarafsiz polvon ekan,  
Yuring, do‘stlar, Chambil qaytib ketayik,  
Rustamday yengilmas zo‘ravon ekan,  
Yuring, do‘stlar, Chambil qaytib ketayik.

Bu yurishning foydasidan o‘tayik,  
Keyingga burilib, qaytish etayik,  
Bozircon tarafsiz pahlavon ekan,  
Yuring, do‘stlar, Chambil qaytib ketayik.

Bunda keldim oltmish olti yoshimda,  
Iyarishib keldingizlar qoshimda,  
Bilolmayman ne gaplar bor boshimda,  
Yuring, do‘stlar, Chambil qaytib ketayik.

Hayrondirman ko‘hna jahon ishiga,  
Bozircon g‘ov bo‘lsa menday kishiga,  
Savdo tushar doim mardning boshiga,  
Yuring, do‘stlar, Chambil qaytib ketayik.

Bozirconni ko‘rdim tarafsiz polvon,  
Har bir qo‘li bitta Rustami Doston,  
Borib turib haros ayladim rostdan,  
Yuring, do‘stlar, Chambil qaytib ketayik.

Go‘ro‘g‘li der, Avaz, Hasan kelmadi,  
Shunday qilib ko‘nglimdagi bo‘lmadi,  
Ha demay keladi yetib Bozircon,  
Kurashmakka menda toqat qolmadi,  
Yuring, do‘stlar, Chambil qaytib ketayik.

Bu so‘zni Go‘ro‘g‘li sultondan qirq yigit eshitib: “Go‘ro‘g‘li sulton hech pilla birovdan qo‘rqan emas, qo‘rqmaydi ham. Jo‘rtaga bizlarga hazil qilib, bizlarni sinamoqchi bo‘lgandir”, — deyishib, Go‘ro‘g‘li sultonning Chambilga qaytib ketayik, deganiga ko‘nmay: “Aka, hazilingni qo‘y. Borib, Bozirconning tuyalarini olib kelamiz, undan keyin hazilingning bundayicha ekanini bilamiz”, — deyishib, yobirlashib Bozircon kelayotgan yoqqa qarab keladilar. Chambilda Xoldor mahram, Hasanxon, Avazxonlar maslahat qilib, Go‘ro‘g‘li sulton va qirq yigitning izi bilan yurib, shu bellikka kelib, Go‘ro‘g‘li sultonning xafa bo‘lib o‘tirganini ko‘rishib, hol-u ahvol so‘rashib o‘tirdilar...

Qirq yigit yo‘l yurib bir gazaga yetib, nar yoqqa qarasalar, Bozircon arab hala-hayt, deb tuyalarini fil-larga tirkab, ovozi guldirday guldirab kelayapti. Bozircon arab daryoning bergi yog‘ida tag‘i bir to‘xtagan ekan. Bo‘lmasa, allaqachon Go‘ro‘g‘li sulton turgan belga yetib kelgan bo‘lar edi. Qirq yigit Bozircon arab yaqinlab kelgan sayin hovliqishib, har qaysisi har yoqqa taysallab tarqalishib ketdilar. Bozircon arab qirq yigitning bu tarqalishini: “Go‘ro‘g‘li sultonning pulchini borib meni aytibdi. Undan keyin Go‘ro‘g‘li sulton bir qulay joyda meni poylab turib, qirq yigitini menga kuzatuvchilikka yuborgan ekan. Asli bu yoqlarga ajalim yetib kelganga o‘xshayman. Nima bo‘lsa ham, gavdam bu dashtda egasiz qolib ketmasin. Go‘ro‘g‘li sultonning pulchiniga bekorga qattiq gapirgan ekanman-da. Tezroq Hashtarxon tomonga qaytib ketmasam, bo‘lmadi”, — deb fillarini yo‘ldan g‘irra burib, beyo‘l dashtni oralab keta berdi. Xuddi shu pilla Go‘ro‘g‘li sulton bellikning bu betiga o‘tsa, Bozircon arab, ha deb qiblaga qarab, fillariga tuyalarini tirkab, beyo‘l haydab ketib borayapti. Buni ko‘rib, Go‘ro‘g‘li sulton: “Yo‘l bu yoqda”, — deb Bozircon arabga chaqirib, bir so‘z dedi:

Adashib borasan qayga, Bozirgon,  
Bu yoqqa haydayo, yo'ling bu yoqda.  
Shundan Urganch qarab ketarlar karvon,  
Bu yoqqa haydayo, yo'ling bu yoqda.

Sen emasmi menga tanish qadrdon,  
Negadir borasan qirdan, daradan,  
Ixlosing do'nganga o'xshaydi birdan,  
Bu yoqqa haydayo, yo'ling bu yoqda.

Qibla yoqda Qirim degan darami,  
Odam degan chetlab keta berami,  
Yo bo'lmasa menga iching qorami,  
Bu yoqqa haydayo, yo'ling bu yoqda.

Shu vaqtlari ekan fasli tirama,  
Bunday qilib bizdan yo'ling burama,  
Yo bo'lmasa, asli iching qorama,  
Bu yoqqa haydayo, yo'ling bu yoqda.

Qaqrab yotgan cho'llar usti gul bo'lsin,  
So'zimning poromi bunda shul bo'lsin,  
Beyo'l haydab, hay, Bozirgon, yo'l bo'lsin,  
Bu yoqqa haydayo, yo'ling bu yoqda.

Ovloq cho'lda kezgan o'g'ri vayoq-da,  
Borishing qay yog'u Urganch qayyoqda  
Yo bir savdo qildimi seni alag'da,  
Bu yoqqa haydayo, yo'ling bu yoqda.

Qo'rqqoqa ergashgan jonsiz soyami,  
Odam degan kelar yo'lin qo'yami,  
Mard kishi ham mardligidan toyami,  
Bu yoqqa haydayo, yo'ling bu yoqda.

Go'ro'g'liman, Turkman elning sultoni,  
Maqtanib so'zlagan so'zlaring qani,  
Kel, uchrash, qolmasin ko'ngling armoni,  
Bu yoqqa haydayo, yo'ling bu yoqda.

Ammo Bozirgon arab Go'ro'g'li sultonning chaqirganiga quloq ham solmadi, orqasiga burilib ham qaramadi. O'z yurishini buzmay, qiblaga qarab keta berdi. Shungacha qirq yigit ham bu yerga yetib, Go'ro'g'li sultonning atrofiga to'dalashib qoldilar. Bu shobirni anglashib, Xoldor mahram, Hasanxon va Avaz o'g'lonlar ham to'daga kelib qo'shildilar. Shu yerda Go'ro'g'li sulton to'dani ikkiga bo'lib, bir yog'iga o'zi bilan Hasanxon, tag'i bir yog'iga Xoldor mahram bilan Avaz o'g'lonni bosh qilib, Bozirgon arabning ikki yog'idan borishib, ko'plashib nayza bilan sanchib, ag'darib tashlamoqchi bo'ldilar. Qaytganning boshiga xotinning qasabasi, deyishib, fotiha tortishib, bari otlarini haydashib, yopirilib, Bozirgon arabning ikki yonidan qimtiyib, nayza uqtala berdilar. Nayzaning bir xillarining uchi borib chor-poyaga tegib, chorpoyani qimirlata berdi. Oxiri Bozirgon arabning achchig'i kelib, besh-olti nayzani jum-bozlab, bir yulqib tortib olib, tortib olgan nayzalarni bug'doyning palochiday qilib qayirib, sindirib tashlab, har yoqqa zing'illatib ulotqirib, fillarning ustidagi chorpoyadan o'zini yerga tashlab, kela solib Go'ro'g'li sultonni big'irlatib bosib: "Ertagusindan beri meni aylantirasan-aylantirasan. Nima, menga berib qo'ygan-ing bormidi? Mana, senga hozir xiroj berib qo'yaman. Mening bergan xirojimning qanday shirin ekanini undan keyin bilasan", — deb yonidan bir gaz pichog'ini chiqarib, Go'ro'g'li sultonni so'yib tashlamoqchi bo'la berdi. Go'ro'g'li sulton qarasa, Bozirgon arabning pichog'i tomog'iga yaqinlashib kelaypti. Shunda Go'ro'g'li sulton: "Yo pir Komil", — deb bor kuchini ikki qo'lga to'plab, choqlab, qulaylab, bir silkib, Bozirgon arabni havoga otib yubordi. Bozirgon arab ikki nayza bo'yi havoga otilib ketib, qaytib yerga shalop etib chalqaraman bo'lib tushdi. Ko'p hariflarni qo'ldan o'tkazgan Go'ro'g'li sulton Bozirgon o'zini o'nglab olaman deganigacha, o'rnidan irg'ib turib, isfahoni xanjarini Bozirgon arabga havola qildi. Shunda Bozirgon arab Go'ro'g'li sultonga: "To'xta, Go'ro'g'li", — deb shu so'zni aytdi:

Adolat yo'lida adilingni haqlab,  
Men bir so'z aytayin, to'xta, Go'ro'g'li,  
Isfahon xanjaring bir zamon saqlab,  
Men bir so'z aytayin, to'xta, Go'ro'g'li.

Azobning otiga minmayin turgin,  
Lochinday ustimga do'nmayin turgin.

G'ajirday lo'kanglab qo'nmayin turgin,  
Men bir so'z aytayin, to'xta, Go'ro'g'li.

Qo'lingga xanjaring olmayin turgin,  
Bir fasl qoshimga kelmayin turgin,  
Jonimning qasdini qilmayin turgin,  
Men bir so'z aytayin, to'xta, Go'ro'g'li.

Turayin, oldimni olmayin turgin,  
Achchiqman muqobil bo'lmayin turgin,  
Qasd bilan qoshimga kelmayin turgin,  
Men bir so'z aytayin, to'xta, Go'ro'g'li.

Bir fasl oldimni tutmayin turgin,  
Jonimga qasdingni etmayin turgin,  
Qochmayman, hech yoqqa ketmayin turgin,  
Men bir so'z aytayin, to'xta, Go'ro'g'li.

Go'ro'g'li sulton Bozirgon arabning bunday so'zlarini eshitib to'xtab: "Ana bo'lmasa, so'zingni ayt", — deb turdi. Har yoqqa paysallab ketgan qirq yigit: "Shunday qulay gagirdakdan foydalanib, bunday xudoning balosining boshini kesib tashlamay, Go'ro'g'lining qarab turgani nesi edi", — deyishib turibdi. Xuddi shu vaqtda Bozirgon arab gavdasini ko'tarib, Go'ro'g'li sultonga qarab, bir so'z dedi:

Tuman daryosiday to'lib-toshaman,  
G'ayratlansam, tog'dan irg'ib oshaman,  
Jangga talab qilsang, sendan qo'rqmayman,  
Urush desang, bul urushga tushaman.

Lekin o'rtada boshqa bir gap bor,  
Men emasman qo'rroq bir tulki, ayyor,  
O'zing jarror bo'lsang, men ham bir jarror,  
Urushsang, kelaqol, mana men tayyor.

O'rtadagi gapni bayon aylayin,  
Boshimdan kechganin ayon aylayin,  
Xunxor meni chaqirgandi oldiga,  
Endi ani senga doston aylayin.

Xunxor zolim Go'rg'liga bor, dedi,  
Aning bilan bir olishib ko'r, dedi.  
Bachchag'arga zo'rlik qilib o'ldirib,  
Tanasidan boshin olib ber, dedi.

Xunxorshoh so'ziga quloq tutmadim,  
Aning deganlarin qabul etmadim,  
Va'da qildi davlat bilan qizlarin,  
Men ularga uchib imon sotmadim.

Nega desang, sha'ningni, shavkatingni,  
Eshitgandim asli ulug' zotingni,

Turayin, oldimni to'smayin turgin,  
Tang joyda tang holim qilmayin turgin,  
Bir fasl boshimni kesmayin turgin,  
Men bir so'z aytayin, to'xta, Go'ro'g'li.

Bu yerda arzu dod aylar Bozirgon,  
Uzoq yurtda yurgan musofir karvon,  
Ichimda yashirib qolmasin armon,  
Men bir so'z aytayin, to'xta, Go'ro'g'li.

Xurosonga kelib bilib olgandim,  
To'tigulman Shoniyozdan otingni.

Eshitganman, yolg'izmishsan otadan,  
Etak osti qolganmishsan onadan.  
Men ham bir uyadan yolg'iz tug'ilib,  
Yolg'iz parvoz etdim manzilxonadan.

Og'zim so'zlar jon chiqqancha tanadan,  
Hech bandasi holi emas gunodan,  
Avval seni tanimabman, Go'ro'g'li,  
Yuragingni toza tutgin ginadan.

Asli sening ta'rifingni bilardim,  
Shuytib do'stligingni doim tilardim,  
Kelgin endi ko'rishaylik, Go'ro'g'li,  
Sening bilan ko'rishsam deb kelardim.

Bu mollarni senga nisor etayin,  
Keyin yakka bir tomonga ketayin,  
Bu bevafo dunyoni .....  
Shu bugundan boshlab taloq etayin.

Bu duniyo kim kimlardan qolmagan,  
Kimlar bundan ekan bahra olmagan.  
Do'sti bo'lgan so'g'in sendayin sulton,  
Nima armon, darvish bo'lsa Bozirgon.

Go'ro'g'li sulton Bozirgon arabning bunday haqqoniy so'zlarini eshitib, uning zo'rlik va mardligiga tan berib, Bozirgon arabni quchoqlab ko'rishib: "Moling o'zingga nasib qilsin", — deb Bozirgon arab bilan do'stlashib, Chambilga mehmon bo'lishga taklif etdi. Shunda Bozirgon arab: "Men Hashtarxonga rav bo'lib qo'ygan edim. O'zing bilasan-ku, mard kishi yuzlangan yog'idan qaytmaydi. Shu Hashtarxondan qaytishimda senga mehmon bo'lib o'taman. Ilgarilari sendan taysallab, chekkalab o'tib ketar edim. Endi bo'lsa, do'stim bo'lding. Har pilla ham sening bilan suhbat qilib turaman", — deb Bozirgon arab Go'ro'g'li sulton bilan xushlashib, Hashtarxonga qarab, fillarining ustidagi chorpo-yaga chiqib, jo'nab ketdi. Go'ro'g'li

sulton ham Xoldor mahram, Hasanxon va Avaz o'g'lonlarni qoshiga chaqirib, qirq yigitlarini to'plab, Chambilga qarab ketdi. Endi gapni Xunxorshohdan eshitsangiz.

Xunxorshohning oldidan Bozirgon arab achchig'lanib chiqib ketgandan keyin: "Endi bu borib Go'ro'g'li sulton bilan do'st bo'ladi. Sababdan sabab, balchiqdan imorat deganday Zobiliston ham shu sabab bilan Go'ro'g'lining qo'liga o'tadi. Undan keyin ikki zo'r bir bo'lib, mening mulkimni vayron etadi. Shunga nima iloj qilsa bo'ladi", — deb Xunxorshoh Parovun ko'sa vaziriga maslahat soldi. Shunda Parovun ko'sa aytdi: "Ey, sultonim, shohijahonim, endigi chora Go'ro'g'li turkman bilan Bozirgon arabning o'rtasiga dushmanlik solmoq kerak. Shunday qilinsa, yo Go'ro'g'li o'ladi, yo Bozirgon o'ladi, yo ikkovi ham nobud bo'ladi. Bu ishni marhum Ovsharning qayinbekasi Manjalaqixon bajo qiladi". Xunxorshoh darrov Manjalaqixonni oldiga chaqirtib, ming tilla in'omini oldiga qo'yib, Go'ro'g'li bilan Bozirgon arab o'rtasiga dushmanlik solishlikni buyuradi. Hamma gapni bilib, hamma tomonga ko'z-quloq bo'lib yurgan ayyor Manjalaqixon podshohning in'omini olib, bir oq eshakka minib, Chambilga qarab jo'nab qoldi. Yo'l yurib, yo'l yurib, Manjalaqixon turkman yurtiga yetib kelib, darrov xo'rjinidan noporman ko'ylak, ko'k sirma chopon olib kiyib boshiga ko'kish ro'molchani qasaba qo'yib, qo'liga tasbih, tag'i bir qo'liga sariq hassa olib, xuddi hajdan kelayotgan buxorolik hoji ayol suratiga kirib, Go'ro'g'li sultonning oldiga peshvoz chiqib: "Sultonim, zarur ish uchun Buxoroga qarab ketmay, seni izlab bu yoqlarga keldim", — deb Go'ro'g'li sultonga qarab, shu so'zni aytdi:

Ol-ol bo'lsin, ol-ol bo'lsin, ol bo'lsin,  
Sanamlar taqqani jilo jil bo'lsin,  
Avval boshdan kelishingdan so'rayin,  
Bu cho'llarda yurib senga yo'l bo'lsin?

Har yerda kishiga shirin til bo'lsin,  
Yigitning olgani xipcha bel bo'lsin,  
Avval boshdan kelishingni so'rayin,  
Giyohsiz cho'llarda senga yo'l bo'lsin?

Sir aytmoqqa sar chamanli gul bo'lsin,  
Zarchamanda tar ochilgan gul bo'lsin.  
Avval boshdan kelishingni so'rayin,  
Bu cho'llarda yurib senga yo'l bo'lsin?

Kiyar bo'lsang kiygan to'ning mo'l bo'lsin,  
Mo'l davlating toma-toma ko'l bo'lsin.  
Avval boshdan kelishingni so'rayin,  
Giyohsiz cho'llarda senga yo'l bo'lsin?

Go'ro'g'li sulton Hoji kampirning bunday kelayotganiga hayron qolib: "Ey, Hoji singlim, men har nechuk ayolga so'z qota bermaguvchi edim. Endi "Hajni borib ziyorat qilgan ham hoji, hajga borgan kishini ziyorat qilgan ham hoji", deganiday, senday tabarruk hoji ayol mendan so'rasa-yu, men javob bermasam bo'lmas. Yo'l bo'lsin gapning o'roli degan. Yo'l bo'lsin desang, xudoy bersa, mo'l bo'lsin. Men o'ris yurtidan aylanib kelayotgan Bozirgon arab degan bir polvon bilan olishib, axir uning bilan do'st bo'lib, uni Hashtarxon yoqqa jo'natib kelayapman", — dedi. Shunda Manjalaqi ko'zini suzib, qoshini tizib, labini burib, tizzasiga qo'lini urib: "Unday bo'lsa, davlatingdan, izzatingdan, sha'ni-shavkatingdan ayrilibsan. Men ham asli shundaymikan, deb bu yoqlarga seni izlab kelayotgan edim", — deb bir necha joydan timsol keltirib, Go'ro'g'li sultonga qarab, biqiniga qo'lini tirab, bir so'z dedi:

Ey, Go'ro'g'li, shashting endi o'tibdi,  
Baxti davlatlaring qo'ldan ketibdi,  
Sening bilan jo'ra bo'lsa Bozirgon,  
Bemahalda ajalginang yetibdi.

Hech pilla g'ayridin oshna bo'lama,  
Ul elingga josus bo'lib kelama.  
Bozirgon arabi qursin, ko'p yomon,  
Esing bo'lsa dushmandan do'stlik tilama.

Bozirgon arabi qursin, bezori,  
Qayda bo'lsa suluvlarning xumori,

Zoti buzuq, bir bozinger xotinboz,  
Uning shuytib hech yerda yo'q qarori.

Kecha-kunduz qilgan ishi zinodi(r),  
Suluv ko'rsa chag'ir ko'zi yonadi,  
Mazzanglarni ishga solib bachchag'ar,  
Go'sht yeydigan g'ajirday bo'p do'nadi.

Bu uzoqdan parilarni eshitgan,  
Eshitib turkmaning yo'lini tutgan.  
O'zini jo'rtaga Bozirgon etgan,  
Shuytib turkman elga ko'p kelib ketgan.



Mazzanglarga ayamay pul tashlagan,  
Yorlaringman nechalab dil xushlagan,  
Sen safarga chiqib ketganlaringda,  
Haramingda maxfiy yotib qishlagan.

Arab eski dushmanligin boshlagan,  
Makr-u hiyla yo'llarini ushlagan,  
Bunga ko'ngil berib ikki yoring ham,  
Ahd-u safolarin otib tashlagan.

Ne emasa yoring senga bor, dedi,  
Borib turib Bozirgonni ko'r, dedi.  
Qarigan chog'ingda unday zo'r bilan  
Tanishib, qardron bo'lib yur, dedi.

Yorlaring o'ragan ro'moli balxi,  
Shu degan so'zining bor turur talxi,  
Asli shum xotinlar ovsarsinishib,  
Jo'rtaga o'zlarin tutarlar solqi.

Gaplaringma shohid ul Qodir mavlon,  
Men hoji ayolman, demayman yolg'on,  
Yolg'on bo'lsa, tasbihim ursin, chirog'im,  
Hali ham g'aflatda qolma, ey, sulton.

G'ofil bo'lsang davlatlaring ketadi,  
Ilgarigi davr sendan o'tadi,  
Do'stingman deb somon tiqib ko'zingga,  
U Bozirgon yorlaring op ketadi.

Go'ro'g'li sulton Manjalaqixonning bunday tashvishli so'zlarini eshitib, yuragi qizib, butun ajabasi qo'zib, allanechuk holatda bo'lib turganida qirq yigitlarning bir xillari: "Aytdimov, "Kosa, kosaning tegida nim kosa", deganday, asli shu hoji ayolning so'zlari rostmi deyman-da. Asli Rayhon arab sendan o'chini ololmaganida shu hiylani o'ylab topgan ekan-da. Bo'lmasa, bu itning ko'ngli avvaldan senga to'g'ri bo'lganida, Hovdakka yetgan oyog'i Chambilga yetmay, panalab ketarmidi. Yana bu yoqlarga kelmay, Hashtarxonga qarab ketganini demaysanmi. Endi Chambilga sening yo'g'ingda kelib, Go'ro'g'li do'stim, deb bizlarga xizmat qildirib, parilarni bemalol olib yota beradi. Hali ham bo'lsa, vaqt kech emas. Turkmaning nomusiga qasd qilgan bu arab itini uzamasdan tutib o'ldirayik. Keyin borib parilarni qopga solib, otga sudratib, titilib, yo'q bo'lib ketganlarigacha ko'pkari qilayik. Bu qanday gap. Asli turkmandan uylanganingda bu voqealar bo'lmasmidi. Hay, u yog'i so'ng bo'lar. Bu arabni elimizga oralatib, enamizga er qilamizmi, haydanglar", — deyishib, qirq yigitlar birlasha bergandan keyin, Go'ro'g'li sultonning ham ko'ziga qon to'lib, Bozirgon arabni ko'rsa, titi-pitini chiqarib tashlaguday bo'lib, haydanglar, haydanglar, deb qirq yigit, Xoldor mahram, Hasanxon va Avaz o'g'lonlar bilan Bozirgon arabning ketgan yog'iga qarab ot surishib ketdilar, bir azim daryoga yaqin Bozirgon arabga quvalab yetdilar. Bozirgon arab bo'lsa: "Bir qo'rqqanim Go'ro'g'li edi. U ham endi menga do'st bo'ldi. Endi hech menda vahm qolmadi. Kashalligim yo'q", — deb bemalol chorpoymasining ustida uxlab ketar edi. Qirq yigit bilan Go'ro'g'li sulton Bozirgon arabni borib yonboshidan qarab ko'rsa, Bozirgon arab xurрак tortib uxlab borayapti. Shunda qirq yigit: "Vaqt-vaqt, shu vaqt, hozir o'ldir bu enag'arni", — deb Go'ro'g'li sultonni turtisha berdilar. Shunda Go'ro'g'li sulton ham o'zini o'nglab, isfahoni o'q-yoyini girdishiga to'g'rilab: "Kindigingning boshi, yuragingning qoshi bo'lg'ay", — deb ust-ustiga tezlik bilan uch o'qni jo'natdi. Bozirgon arab gup etib, chorpoyaning ustidan yerga yuzto'baniga ag'darilib tushdi. Shunda bechora Bozirgon arab o'zini o'nglay olmay, Go'ro'g'li sultonga: "Kimsan? Kim bo'lsang ham, o'lasan. Mening uchun Go'ro'g'li sulton seni qo'ymaydi", — deb shu so'zni aytdi:

Kim bo'lsang ham, ayo, nomard, o'lasan,  
Qavjiragan xasday bo'lib so'lasan,  
Mening do'stim turkman elning arsloni,  
Sen aning qo'lida nobud bo'lasan.

Mening bunda o'lganimni eshitar,  
Kecha-kunduz demay bu yon yo'l tortar,  
Tubkonning tubiga qochib borsang-da,  
Bu qilgan qilmishing boshingga yetar.

Go'ro'g'li deganim Chambilga sulton,  
Dunyoda bir o'zi tarafsiz polvon.  
Shundayin bahodir menga do'st bo'lgan,  
Ul kelib qiladi o'zingni yakson.

Senga so'zlab turgan menday Bozirgon,  
Sen eding qandayin falokat urgan,  
Uch o'q bilan meni fildan uchirgan,  
Qasdingga keladi Go'ro'g'li sulton.

Ana endi Go‘ro‘g‘li sultonning ko‘zi ochildi. Bilsa, Bozircon arab sof yurakli odam va haqiqiy do‘st bo‘lgan ekan. Bu gaplarga boyagi hoji ayol sababchi ekan. Shuytib dushmanning firibiga tushib juda ham chatoq xato qilib qo‘ygan ekan. “Hey, attang, nomard bo‘lib qolibman. Shunday halol do‘stimning yuziga tonglaylik kunda sharmanda bo‘libman. Attang, ming attang. Sipohilik shunday bo‘ladigan bo‘lsa, o‘rgildim bunday sipohiliklardan”, — deb Bozircon arabning yuzini bundayiga ag‘darib: “Ey, do‘stim, men o‘sha nomard Go‘ro‘g‘liman. Endi sen shu o‘q-yoyini qo‘lingga olgin-da, joning bor pillada meni otib o‘ldir. Qasos qiyomatga qolmasin”, — deb Go‘ro‘g‘li sulton o‘ksib yig‘lab, Bozircon arabga qarab, shu so‘zni aytdi:

Ma, bu yoyim qo‘lga olib,  
Nomard do‘sting otgin endi,  
Ahd-u paymonin unitgan  
Bevafoni otgin endi.

Men yomonni otib o‘ldir,  
Ko‘nglimning istagi shuldir,  
Xatomning jazosi buldir,  
Bu nomardni otgin endi.

Dushmanning so‘ziga kirdim,  
Qayrildim, qasdingga turdim.

Men yomon seni o‘ldirdim,  
Bevafoni otgin endi.

Necha qirdan oshib keldim,  
Haq yo‘lidan adashib keldim,  
Sabr aylamay shoshib keldim,  
Shoshgan qulni otgin endi.

Go‘ro‘g‘li der xato qildim,  
Makkor so‘ziman yangildim,  
Shunday qip gunohkor bo‘ldim,  
Gunohkorni otgin endi.

— Ey, Go‘ro‘g‘li, do‘stim, bilaman, sening menga qasding yo‘q. Dushmanning so‘ziga kirib xato qilgansan. Asli taqdirim shu ekan. Do‘stdan muruvvat degan. Men sening xatongni do‘stligimiz hurmatiga kechirdim. Endi mening ko‘ksimga sanchilgan o‘qlarni sug‘irib ol. Undan keyin, do‘stim, senga vasiyatim shuki, men o‘lsam, ko‘rpakli joyga ko‘m. Zobilistonda Qaldirg‘och degan bir singlim bor. Mening o‘lgan nimni eshitsa, tevarakdan ul singlimga qasd qilg‘uvchilar ham bo‘lib qolishi mumkin. Zinhor, do‘stim, ul bechora yolg‘iz qolgan singlimga ko‘makdosh bo‘l, — dedi. Shunda Go‘ro‘g‘li sulton yig‘lab, kalima qaytarib, Bozircon arabning ko‘kragiga sanchilgan o‘qlarni sug‘irib oldi. Bozircon arab ham shunda mardlar-cha joni chiqib, abadiy uyquga ketdi. Undan keyin Go‘ro‘g‘li sulton Xoldor mahram, Hasanxon va Avaz o‘g‘lonni chaqirib, qirq yigitlarini to‘plab, bo‘lgan voqeani ularga aytdi. Bozircon arabning jasadini o‘z chorpoymasiga ortib, Chambilga qarab qaytdilar. Ko‘p ovorachiliklar bilan Bozircon arabning jasadini Chambilga yetkazishib, juda katta dabdabali janoza qildirib, Chambil qabristonining bir chekkasiga ko‘mdilar. Undan keyin Go‘ro‘g‘li sultonning farmoyishi bilan Bozircon arabning qabri ustiga ganjdan hashamatli o‘ymalar bilan maqbara bog‘lashdilar. Ungacha Hasanxon Manjalaqixonning izi bilan quvalab, Asqar tog‘idan endi oshgan pillasida tutib keltirib, Go‘ro‘g‘li sultonning farmoni bilan Chambilning chor-tog‘idan itqitib o‘ldirdilar. Undan keyin Go‘ro‘g‘li sulton: “Endi nima bo‘lsa ham, dushmanlar Go‘ro‘g‘li Bozircon arabni moli uchun o‘ldirdi, demasin. Har gap bo‘lsa, qirq yigit borib Bozircon arabning tuyalarini yuklari va fillari bilan Zobilistonga eltib, Qaldirg‘ochga berib ham Bozircon arabning o‘lganligini bildirib kelinglar”, — deb Bozircon arabning fillari va tuyalarini qirq yigitiga berib, Zobiliston mam-lakatiga jo‘natdi.

Ular yo‘l yurib, yo‘l yursa ham, mo‘l yurib Zobiliston yurtiga yetib, so‘roqlab Bozircon arabning hov-lisini topib, bari yig‘lashib, Qaldirg‘ochning oldiga kirishdi. “Bozircon arab borib, Go‘ro‘g‘li sulton bilan do‘st bo‘lgan edi. Chambilda bir necha kun bo‘lib, cho‘nqayma degan kasalga uchrab o‘ldi. Shu yerga ko‘mdik. Undan keyin mollarini Go‘ro‘g‘li sulton bizlardan senga berib yubordi”, — dedilar. Qaldirg‘och ham yig‘lab, akasiga deb bir necha mol so‘ydirib, elni chaqirib xudoyi qildirdi. Undan keyin qirq yigitni bir-ikki kun mehmon qilib, har qaysiga bir hovuchdan tilla in‘om qilib, Chambilga qaytardi. Qo‘rg‘onning boshini to‘p buzar, odamning boshini gap buzar, deganday, oradan picha vaqt o‘tgandan keyin: “Bozircon arabni birov otib o‘ldirgan ekan”, — degan xabarlar Qaldirg‘ochning qulog‘iga eshitila berdi. Oxiri: “Akamni o‘ldirgan kishini kim bilsa, menga aytsin”, — deb Qaldirg‘och elga jar soldirdi. Yaqinda Chambil yoqdan kelgan Mahmud bozircon degan kelib, Qaldirg‘ochga qarab: “Akangni Go‘ro‘g‘li o‘ldirgan”, — deb shu so‘zni aytdi:

Qaldirg'och, eshitgin, aytar so'zimni,  
Akangni o'ldirgan turkman Go'ro'g'li.  
Mahmud bozirgon deydi o'zimni,  
Og'angni o'ldirgan sulton Go'ro'g'li.

Makr-u hiylasini haddan oshirib,  
Jo'rttaga do'st bo'lib, sirin yashirib,  
Aldab-netib biyobonga tushirib,  
Akangni o'ldirgan turkman Go'ro'g'li.

Zolim qonxo'r zo'rligini bildirib,  
Xanjar urib, qora bag'rin tildirib,  
Ichida necha bir hasrat qoldirib,  
Og'angni o'ldirgan sulton Go'ro'g'li.

Bozirgon arabning yetdi ajali,  
Bu gaplar barchasi taqdir azali,  
Anda edim akang o'lgan mahali,  
Akangni o'ldirgan turkman Go'ro'g'li.

Yolg'on emas, degan so'zlarim rostdi,  
Akangga ayladi Go'ro'g'li qasddi,  
Kurashib ul zolim akangni bosdi,  
Og'angni o'ldirgan sulton Go'ro'g'li.

Undan keyin u yog'ini bilmayman,  
Bilmaganim senga bayon qilmayman,  
Go'ro'g'liga qaram joydan bo'lmayman,  
Akangni o'ldirgan turkman Go'ro'g'li.

Mahmud bozirgon bu so'zni aytdi. Qaldirg'ochoy bir-bir eshitdi. Yuragida g'azab alanga urib ketdi. Hindiston yurtini o'sha vaqtlarda bir Qora dev bosib olib, o'ziga tobe qilgan edi. Ayol ko'rgich josuslari orqali Qaldirg'ochga g'oyibona xushtor bo'lib edi. Lekin Bozirgon arabdan qo'rqqanidan Qaldirg'ochga sovchi yubora olmay yurar edi. Buni Qaldirg'och bilar edi. Agar akasining o'lganini eshitsa, Qoradevning o'zi kelib ko'ngliga kelgan ilmi noma'qulchiligini qilishi mumkin. "Chor atrofda dushman. Jangda halok bo'lsam ham, akamning o'chini olayin. Tavakkal-da, yo bud bo'larman, yo nobud bo'larman", — deb erkakcha kiyinib olib, yakka-yolg'iz suvori bo'lib, Chambilga qarab ketdi. Endi Go'ro'g'li sultondan so'z eshitingiz.

Go'ro'g'li sulton Bozirgon arabga qirqinchi kunlik xudoyisini berib, undan keyin o'zi haddili xafa bo'lib, ko'ngil ochmoq uchun qirq yigiti bilan Xoldor mahramni olib ovga chiqib, kechgacha ovda bo'lib, kechkisin bir bovrulikda yotib, yigitlaridan oldin Go'ro'g'li uyg'onib, bir kichkina bo'loqda yuvinib tursa, ostida o'ynab tulpor oti, qo'lida keskir po'lati, juda ham baland g'ayrati, nayza qilichi sharqillab, ostidagi bedovi parqillab, bir qo'lida dubilg'a, dastali qamchi, bedovining chotiga har urganida sharqillab, italg'iday yutinib, och tuyg'unday qimtinib, kimni ko'rsa, bo'lak-bo'lak qilib tashlaguday intilib, bir yigit kelayapti, ekan. Go'ro'g'li sultonning u yigitga ko'zi tushib: "Bunday subhidamda yurgan qanday botir dushman bu", deb Xoldor mahram va qirq yigitini uyg'otib turganida, u kelayotgan yigit Go'ro'g'li sultonning oldiga yetib, salom berib, Go'ro'g'li sulton bilan ko'rishib, uzangiga oyog'ini tirab, Go'ro'g'li sultonga qarab: "Ey, sardor og'a, Go'ro'g'li deganning qayerda ekanligini bilasanmi", — deb so'rab, shu so'zni aytdi:

Sahro kezib yurgan og'a,  
Go'ro'g'lidan xabar bergin,  
Qayda bo'lsa turar joyi,  
U polvondan xabar bergin.

Men bir ko'ngli poraman,  
Go'ro'g'lini axtaraman.  
Qay yerda bo'lsa boraman,  
Ul sultondan xabar bergin.

Ov qilgan joying havodir,  
O'zingsan bir elga sardor,

Menga u pahlavon darkor,  
Go'ro'g'lidan xabar bergin.

Men kelaman tog'dan oshib,  
Daryoday bo'p to'lib-toshib,  
Uzoq bo'lsa odam qo'shib,  
Ul polvondan xabar bergin.

Qabatida pasalov tog'i,  
Past bo'lsa ham ko'pmish ovi,  
Sarchashmadan tushgan suvi,  
Chambilbeldan xabar bergin.

Yigitning bu so'zini eshitib, Go'ro'g'li sulton: "Go'ro'g'lida nima ishing bor", — deb so'rab, u yigitga qarab, bir so'z dedi:

Tarzingga qaragam, misli gul g'uncha,  
Sultonni so'raysan, ukam, na muncha,  
Biz bo'lamiz Go'ro'g'lining navkari,  
Shu yerda turibmiz o'zi kelguncha.

Turqingga qaragam, hali bolasan,  
Bahorda ochilgan bog'da lolasan,  
Barno yigit, Go'ro'g'lini so'raysan,  
Ani ko'rsang, ukam, nima qilasan?





Tongda eshitar bulbul sanosi,  
So'z aytaman kelsa so'zning xonasi,  
Barno yigit, Go'ro'g'lini so'raysan,  
Yo edingmi bir uzoqlik oshnasi?

Qo'lingda xanjaring, o'zing sipohi,  
Kelbati, andozang falakning mohi,  
Barno yigit, Go'ro'g'lini so'raysan,  
Uzoq emas ul sultonning dargohi.

Shunda yigit suratida bo'lib kelgan Qaldirg'och Go'ro'g'li sultonga javob berib, bir so'z dedi:

Ummon daryosiday toshib-to'laman,  
Qasd qilgan g'animdan o'chim olaman,  
Men ham mardi maydonlardan bo'laman,  
Go'ro'g'liga talab solib kelaman.

U Go'ro'g'li bedovini yeldirgan,  
Har elatga zo'rligini bildirgan,  
Paytin topib borib no'g'oy cho'lida,  
Bozirconday mard akamni o'ldirgan.

Go'ro'g'li quv, quvligini bildirgan,  
Firib berib nechovlarni kuldigan,

Ol-ol bo'lsin, ol-ol bo'lsin, ol bo'lsin,  
Oq yuzga yarashgan qora xol bo'lsin,  
Barno yigit, Go'ro'g'lini so'raysan,  
Unday bo'lsa, ukam, senga yo'l bo'lsin?

Chambillikman, o'zim Ravshan o'g'liman,  
Kaj falakning jafosiga bog'liman,  
Bir osiy bandaman, bag'ri dog'liman,  
Unday bo'lsa, ukam, senga yo'l bo'lsin?

Urishib, kurashib no'g'oy cho'lida,  
Bozircon tuyachi akamni o'ldirgan.

Jon og'amning bilmaganin bildirgan,  
Xanjar urib qora bag'rin tildirgan,  
Baslashib olishib no'g'oy cho'lida,  
Bozircon degan akamni o'ldirgan.

Shuytib mening qon qilgandi ichimni,  
Borib unga ko'rsatarman kuchimni,  
Akamning o'rniga qiynab jonini,  
Go'ro'g'lidan oladirman o'chimni.

Shunda Xoldor mahram: "Ish chatoq bo'ldi-ku", — deganday qilib u yigitning ko'zini o'g'irlab, Go'ro'g'li sultonga qarab, labini tishlab turibdi. Ammo Go'ro'g'li sulton yigit bo'lib kelgan Qaldirg'ochga sir boy bermay: "Go'ro'g'li bizning sultonimiz bo'ladi. Lekin sultonimiz bo'lsa ham, birga o'ynab-o'sganlik uchunmi, har qalay, mening bilan hazillashib, olishib, kurashib yuradi. Gohi Go'ro'g'li sulton meni yiqadi, gohi men Go'ro'g'lini yiqaman. Shuytib, mening kuchim ham Go'ro'g'li sultonga teng keladi. Sen Go'ro'g'liga talab solib kelayotgan bo'lsang, avval mening bilan bir kuch sinashib ko'r. Agar meni yiq olsang, Go'ro'g'li sultonni ham yiq olasan. Agar mendan yiqilsang, Go'ro'g'li sultonni yiq olmasan", — dedi. Go'ro'g'li sultonning so'ziga Qaldirg'och ko'nib, shu yerda Go'ro'g'li sulton bilan kurashib qolib, ha demay Qaldirg'och Go'ro'g'li sultonni ko'tarib yerga bir urdi. Shunda Go'ro'g'li sulton: "Voh-voh, orqamni og'irtiding-ku. Muncha odamni ayamay urasan. Nima, men sening akangni o'ldiribmidim", — deb Qaldirg'ochni uch nayza bo'yi osmonga otib yubordi. Qaldirg'och tomdan tashlagan tumoqday bo'lib, yerga tushib, ko'tkanchak bo'lib o'tirib qoldi. Shunda Go'ro'g'li sulton: "Ey, uka, endi biznikiga mehmon bo'lib tur. Go'ro'g'li sulton ovda yuribdi. Qachon Go'ro'g'li sulton ovdan kelsa, seni o'zim Go'ro'g'li sulton bilan uchrashtiraman", — dedi. Qaldirg'och ham rozi bo'lib, Go'ro'g'li sulton va qirq yigitlarga ergashib, Chambilga qarab kela berdi. Qaldirg'och ko'nglida: "Bu xalq qanday ajoyib mard odamlar. Bu yerlarga men yov bo'lib kelgan bo'lsam, bular meni mehmon qilib yursa", — deb taajjubga qoldi. Shuytib, Go'ro'g'li sulton Xoldor mahram va qirq yigitlar bilan ergashib, Chambilga yetib keldi. Shunda Go'ro'g'li sulton Qaldirg'ochni ergashtirib Bozircon arabning maqbarasiga olib kirdi. Qaldirg'och qarasa, akasining maqbarasi ganjlangan, gumbazining aylanasiga tillaning suvi bilan Go'ro'g'li sultonning tilidan marsiya yozilgan. Qaldirg'och Go'ro'g'li sultonga qarab: "Aka, sultonlaring haqiqiy sultonga o'xshaydi", — deb zor-zor yig'lab, shu so'zni aytdi:

Eshitgin so'zimni turkmanli sardor,  
Keladi miyamga bir gap boyakbor,  
Go'ro'g'li sultonni deganim murdor,  
Eshit-meshit bari yolg'on o'xshaydi.

Shu orada bir gap bo'lgan o'xshaydi,  
Bir nechalar fitna solgan o'xshaydi,

Go'ro'g'li chin do'stlik qilgan o'xshaydi,  
Eshit-meshit bari yolg'on o'xshaydi.

Bu so'zlarni aytar menday gajakdor,  
Men yigit emas, bir qiz mushtipar nochor,  
Zarhal maqbarasi miyamni ochar,  
Eshit-meshit bari yolg'on ckandir.



Bozircon inglisi, o‘zim gajakdor,  
Og‘am diydoriga edim intizor,  
Go‘ro‘g‘liga bo‘lgim kelar xizmatkor,  
Eshit-meshit bari yolg‘on o‘xshaydi.

Asli qizman, Qaldirg‘ochning o‘ziman,  
Ko‘rmay hisob emas ekan kishi ko‘ziman,  
Chambilga kelibman dushman so‘ziman,  
Eshit-meshit bari yolg‘on o‘xshaydi.

Qaldirg‘ochning so‘zi Go‘ro‘g‘li sultonga juda qattiq ta‘sir qildi. Shunda zor-zor yig‘lab: “Qaldirg‘ochjon, unday emas. Men asli bilsang, Go‘ro‘g‘li bo‘laman. Akangni mana shu osiy qo‘lim bilan otib o‘ldirganman. Endi sen meni bu mening qilichimni olib, shu akangning boshida meni burdalab tashlab, qasosingni ol”, — deb shu so‘zni aytdi:

Go‘ro‘g‘li degani asli o‘zimman,  
Men halok etgandim aziz akangni,  
Hayron bo‘lma bunday aytgan so‘zimman,  
Men halok etgandim aziz akangni.

Endi kelgan bo‘lsang, o‘chingni olgin,  
Gunohkor ko‘ksimga shu tig‘ni solgin.  
Izlagan Go‘ro‘g‘ling o‘zimman, bilgin,  
Men halok etgandim aziz akangni.

Bu degan so‘zimga bo‘lmasin hayron,  
Chibinday jonimdir yo‘lingga qurbon.  
Ma, keskir isfihon, olgin qonga qon,  
Men halok etgandim aziz akangni.

Qizlarning ichida o‘zing o‘dag‘a,  
Ko‘kragingda tona, boshingda jig‘a,  
Yo‘lingga chibinday jonim sadag‘a,  
Men halok etgandim aziz akangni.

Bu xanjarni ol-da meni o‘ldirgin,  
Bir urib ko‘ksimga, bag‘rim tildirgin,  
U do‘stimga jigarliging bildirgin,

Men halok etgandim aziz akangni.

O‘ch olay deb kelgan senday gajakdor,  
Men na qilay bo‘lgandirman gunohkor,  
Turibman jonimni bermakka tayyor,  
O‘zingga aytadi menday xatokor,  
Men halok etgandim aziz akangni.

Yig‘layman, yig‘layman bu o‘pkam to‘lib,  
Avvalida akang bilan do‘st bo‘lib,  
Falokat ozg‘irib, hijlatga qolib,  
Men halok etgandim aziz akangni.

Bilmay qolib kirdim dushman so‘ziga,  
Shunday qilib tushdim akang iziga,  
Qaramayin ahd-u paymon yuziga,  
Men halok etgandim aziz akangni.

Bozircon boshida Go‘ro‘g‘li o‘lsin,  
Gunohkor tanasi shu joyda qolsin,  
Mayli men roziman, singlim, o‘ldirgin,  
O‘ligim boshqalarga ibrat bo‘lsin,  
Men halok etgandim aziz akangni.

Shunda Go‘ro‘g‘li sultondan bu so‘zni eshitib Qaldirg‘och aytdi: “Akam ham mard edi. Sen akamdan ham mard ekansan. Bildim, oraliqda dushman bo‘lgan ekan. Akam bilan ikkovingning o‘rtalaringga ig‘vo solgan ekan. Shuytib akamning ajali yetib o‘lgan ekan. Asli bu gaplarning hammasi taqdirida bo‘lgan ekan. Men seni uzoqdan bir zolim odam, deb yurar ekanman. Endi bildim, sen nazarkarda, Xizir dorigan odam ekansan. Endi adisari akam ajali yetib o‘libdi. Izzat va ikrom bilan ko‘milibdi. Endi men akamning o‘rniga seni qiyomatliq akam qilaman”, — deb o‘rmidan irg‘ib turib, Go‘ro‘g‘li sultonni quchoqlab yig‘lay berdi. Undan keyin Go‘ro‘g‘li sulton Bozircon arabning boshida bir fotiha o‘qib, Qaldirg‘ochni singil qilib, haramiga olib ketdi. Og‘a Yunus, Misqol parilar chiqib, Qaldirg‘ochni yupatib, ichkariga kirgizdilar. Ana odamning xushro‘yi, ikkovi birday, ochilgan gulday, taroqqos boylagan, suqsurday bo‘ylagan, muloyimligi odamning joniday, bihishtning g‘ilmoniday. “Voh, bizlar ham yurgan ekanmiz, suluvimiz, deb. Bu ayollarning suhbatida o‘tirgandan keyin akam Go‘ro‘g‘li sulton mingga kirmay nima”, — deb Qaldirg‘och parilarning husniga, qaddu qomatiga, xulq-u atvoriga qoyil qolib, Go‘ro‘g‘li sultonning haqiqiy kilkili kelganligiga tan beribdi. Shuytib, Qaldirg‘och bir necha kun Chambilda qoldi. Shu oraliqda Go‘ro‘g‘li sultonga Qaldirg‘och Hindiston sultoni Qoradevning o‘ziga xushtor ekanini, qachon bo‘lsa, qasdiga bir kelishini aytgan edi.

Go‘ro‘g‘li sulton Hasanxon bilan Avaz o‘g‘lonni Chambilda qoldirib, Xoldor mahram bilan qirq yigitni ergashtirib, Qaldirg‘ochni olib, Zobilistonga borib, Qoradevning payida bo‘lmoqchi bo‘ldilar. Qaldirg‘och bechora Zobilistonga jo‘nashdan oldin akasining qabrini bir ziyorat qilib olib, undan keyin Go‘ro‘g‘li sulton og‘asiga ergashib, bu ham yo‘lga tushdi. Go‘ro‘g‘li sulton, Xoldor mahram, Qaldirg‘och va qirq yigit Zobiliston yo‘liga tushib, bir necha kun o‘tgandan keyin Zobiliston yurtiga yetib bordilar. Go‘ro‘g‘li sulton qarasa, zobilistonliklar Xurosonga qarab uzluksiz ko‘chib kelayotir. Ulardan so‘rasa,

Qoradev Hindistondan yuz ming qo‘shin olib, Qaldirg‘ochni zo‘rlab olib ketmakka bira to‘la to‘y asboblari bilan o‘n ming oshpazni olib Zobilistonga kelib, qo‘r tashlayotgan emish. Shuytib, yerli xalqlar Qoradevdan qo‘rqqanidan qochib ko‘chib ketib borayotgan emish, bir xil noiloj ulovi yo‘q kambag‘al xonadonlar Zobilistonning jar, chuqurlarida o‘ralishib qolib ketgan emish. Bu xabarni eshitib, Go‘ro‘g‘li sulton Qaldirg‘ochga: “Qani, singlim, “Har yurtning quyonini o‘zining odami ovlaydi”, degan. Bir iloj qilib, hovlingga Qoradev va uning odamlari ko‘rmay, kirib borishimizga yo‘l top”, — dedi. Qaldirg‘ochning hovlisiga otxonasi tarafidan eshik bor edi. Qoradevning odamlariga bildirmay, ana shu mol qo‘rasi tomonidan Go‘ro‘g‘li sulton, Xoldor mahram va qirq yigitni Qaldirg‘och ergashtirib kirib olib, xizmatkorlaridan so‘rasa, Qoradevning sovchilari ikki marta kelib ketibdi. Xizmatkorlar Qaldirg‘ochni ovda deb bahona qilib, Qoradevning sovchilarini qaytargan ekanlar. Qaldirg‘och, Go‘ro‘g‘li sulton, Xoldor mahram va qirq yigitning otlarini ikki tablalarga soldirib tashlab, Go‘ro‘g‘li sultonning yigitlarini ham tomlarga bo‘lib qo‘yib, bularni yashirincha mehmon qila berdi. O‘zi hech nimani ko‘rmaganday bo‘lib, xonasiga kirib o‘tiraberdi. Shu kuni Qoradevning sovchisi yana keldi. Shunda Qaldirg‘och sovchiga: “Qoradev menga xushtor bo‘lsa, o‘zi avval yolg‘iz kelib, mening bilan bir tanishib, sinashib ketsin. Sovchi yuborish qochib ketmaydi”, — deb javob aytib yubordi. Bu kunisi choshtgoh pilla Qoradev pishillab, vashillab, lorsillab, gursillab, ko‘rganning hurrasini uchirib, tomlarni dirillatib, ovozini gurillatib Qaldirg‘ochnikiga kelib qoldi. Ko‘zlari o‘ynab, zardasi qaynab, Qaldirg‘ochga qarab, mo‘ylovini burab, bir so‘z dedi:

Sensan odamzod suluvi,  
Bormi ko‘nglingning yaylovi,  
Oshiqning boshlab keluvi,  
Turgin, nozim, turgin endi.

Bo‘ying barno, yuzing guldir,  
Senga xushtor bizday uldir.  
Qaldirg‘ochoy so‘zim shuldir,  
Turgin, nozim, turgin endi.

Bizday mardni ko‘rgin endi,  
Oppoq qo‘ling bergin endi,  
To‘y qilaylik yurgin endi,  
Turgin, nozim, turgin endi.

Ko‘zim lovullab, ko‘ksim yonar,  
Olma yuzing, ko‘ksing anor,

Seni quchsam, bahrim qonar,  
Turgin, nozim, turgin endi.

Bo‘ying baland, o‘zing lozar,  
Qadding bilan qaddim barobar,  
Labing asal, tishing gavhar,  
Turgin, nozim, turgin endi.

Mo‘l suyakli, ko‘ksi kengsan,  
Zar-u molli, gulli yengsan,  
Polvonsan, polvonga tengsan,  
Turgin, nozim, turgin endi.

Ko‘rishaylik kelgin berrak,  
Ishqing bilan yondi yurak,  
Qoradevga sensan kerak,  
Turgin, nozim, turgin endi.

Qoradevning so‘ziga parvo qilmay, Qaldirg‘ochning ko‘ngli buzilib: “Akam bo‘lganda, bu dev uyimga shuytib kela olarmidi”, — deb sozini qo‘liga olib, bir maqomga chalib, akasini yo‘qlab, qo‘lida sozi, og‘zida so‘zi, Qaldirg‘och nima dedi:

Yondasharmi edi dushman qoshima,  
Bechora Bozircon akam bo‘lganda.  
Yov kelolmasdi tegra-dashima,  
Azizim pahlavon akam bo‘lganda.

Telmurib yig‘layman ko‘zim har sori,  
Bu savdolar yolg‘izlikning asari,  
Tusharmidi bu yon g‘anim guzari,  
Bechora Bozircon akam bo‘lganda.

Qiyo falak qo‘ydi meni o‘ylatib,  
Soz chaldirib turfa-turfa so‘ylatib,  
Olardi dushmanni tutib boylatib,  
Azizim pahlavon akam bo‘lganda.

Hali ham arvohi yetib kelsa-chi,  
Bu iflosning gardanidan olsa-chi.  
O‘lgan kishi bu so‘zlarim bilsa-chi,  
Mendayin ojizga madad qilsa-chi.

Go‘ro‘g‘li sulton ko‘mirxonada yotib: “Maboda Qaldirg‘och meni kelib madad qilsin, deb shu so‘zlarni ishorat qilayaptimikan”, — deb o‘rmdan qo‘zg‘olib, bir qulaylanib qo‘yib, tag‘i sabr qilib turdi. Asli Qaldirg‘och shu ishora so‘zim bilan Go‘ro‘g‘li kelar, deb o‘ylagan edi, bo‘lmadi. Qaldirg‘och tag‘i so‘zini davom etdi:

Yo‘q ekandir ayriliqning chorasi,  
Boqqan bilan ko‘rinarmi qorasi,  
Kelarmidi Hindistonning to‘rasi,  
Bechora Bozircon akam bo‘lganda.

Bir yomonga boqib ko‘zim suzilar,  
Xo‘rligimga ko‘nglim bo‘shab buzilar,

Shuytib kelmas edi nafsi bozilar  
Azizim pahlavon akam bo‘lganda.

Qaldirg‘ochning yetar qay yerga zori,  
Yomonlardan kelar bo‘lsa ozori,  
Yuzma-yuz bo‘lmasdi bunday bezori,  
Bechora Bozircon akam bo‘lganda.

Qoradev bo‘lsa, Qaldirg‘ochning so‘ziga tushunmay: “Bu menga noz-u karashma qilgani bo‘lsa kerak”, — deb enkayib Qaldirg‘ochni o‘pib olmoqchi bo‘la berdi. Shunda Qaldirg‘och Qoradevni tirsaklab, itarib yuborib: “Umringda badaning suv ko‘ribmidi. Betingni besh it yalasa, to‘yadi. Ana sochiqni ol-da, avval borib dahlizda cho‘milib kel”, — dedi. Qoradev: “Endi Qaldirg‘och bizga rioya qildi. Cho‘mil-sak, cho‘milib olayik”, — deb sochiqni olib, dahlizga chiqib, anjom-aslahalarini qoziqqa ilib, yechinib cho‘mila berdi. Go‘ro‘g‘li sulton chiqib, Qoradevga qarab, bir so‘z dedi:

O‘lim haydab kelgan, makkor Qoradev,  
Kiy kiyiming, qasdingga turgan Go‘ro‘g‘li,  
Kurashayik bo‘lib bunda ro‘paro‘,  
Tura kel, qasdingga turgan Go‘ro‘g‘li.

Qaydan kelding bunda ko‘zing o‘ynatib,  
Ichingga mug‘ombirlikni to‘ynatib,  
Hasadman kuydirib, ko‘ksing qiynatib,  
Tez kiyin, qasdingga turgan Go‘ro‘g‘li.

O‘zgalarga o‘zing odam ko‘rsatib,  
Iching turli-tuman shumlikka botib,  
Miyminglatib ayyor ko‘zing o‘ynatib,  
Yetti andomingni toshlay qiyratib,  
Naq ko‘ksingga o‘tkir nayza tuyratib,  
Tura kel, qasdingga kelgan Go‘ro‘g‘li.

G‘aflat bosib armon bilan qolmagin,  
Emas joyda xo‘b olishmay o‘lmagin,  
Kurashmasdan tag‘in nobud bo‘lmagin,  
Qasdingga kelib turgan Go‘ro‘g‘li.

Qoradev bir pilla qarasa, anjom-aslahasi osmondan tushganday qoshida. Birov: “Tur, kiyimingni kiyib ol. Men Go‘ro‘g‘li bo‘laman. Tag‘i olishmay o‘ldim, deb armonda qolmagin”, — deb turibdi. Qoradev avvaldan Go‘ro‘g‘li sultonning ta‘rifini ko‘p eshitgan edi. “Ha ukkag‘ar, Go‘ro‘g‘li deganicha bor ekan. Bo‘lmasa, bu yerga qanday qilib kira oladi. Dahliz ichidan zanjirlangan bo‘lsa. Ko‘hi Qofning qancha qobon devlari ham menga bas kela olmas edi. Endilik kunda ming Go‘ro‘g‘li bo‘lmoq tugil baloyi-battar bo‘lsa ham, o‘z yo‘liga. Hali bu meni boshqa devlarday bilib kelgan bo‘lsa, bir momataloq qilib, pari olgan-lariga ham pushaymon qildirib o‘ldiray”, — deb kiyimlarini kiyib olib, qoziqdan anjom-aslohalarini ham taqib olib, Go‘ro‘g‘li sultonga qarab: “Qani, hoy, yazna, boshqa devlar ilgari seni bir guppi qilmagan bo‘lsa, bugun mendan bir ko‘r. Seni o‘xshatib bir yerga guppa qilib tashlayki, pari olganingga pushaymon qil”, — deb Go‘ro‘g‘li sultonga birdan hamla qila ketdi. Go‘ro‘g‘li sulton ham bo‘sh kelmay, Qoradevga muqobil hamla qila berdi.

Shuytib, Go‘ro‘g‘li sulton Qoradev bilan ko‘p olishib, oxiri paytini qo‘ldan bermay, Qoradevning kallasidan pichoqni bosib yubordi. Qoradevning kallasi qora tarvuzni ikkiga bo‘lganday ikki yoqqa ayrilib, joni jahannamning eng chuqur joyiga tiqilib zich bo‘lib, boshqa gunohkorlar uchun jahannamning ichida tushib yotgani joy topilmay qoldi. Shunda Qoradevning harom tanasi gup etib ag‘darilganini eshitib, Qaldirg‘och ichkaridan yugurib chiqib, Go‘ro‘g‘li sulton bilan Qoradevning jasadini dalaga qaratib otib yubordilar. Qoradevning harom jasadi yigirma ikki kuchukka ovqat bo‘ldi. Pusinib yotgan joylaridan Xoldor mahram va qirq yigit chiqib kelishdi. Bari maslahatni bir joyga qo‘ydilar. Qoradevning qo‘shiniga chor atrofdan o‘rab hujum qildilar. Qoradevning askaridan ham, oshpazlaridan ham tuxum qoldirmay qirdi-lar. O‘liklar xirmon-xirmon bug‘doyning bog‘iday ayqashib, uyma-uy bo‘lib qoldi. “Bizlarga ovqat ko‘payib qoldi”, — deb g‘ajirlar sayil qilib qoldi. Go‘ro‘g‘li sulton juda ham ko‘p o‘ljali bo‘lib, qirq uch xachir tilla qilib, Qaldirg‘ochni iyartib, qirq yigit bilan Chambilga qarab qaytdi. Chambilning chorbog‘iga kelib tushib, Qaldirg‘ochni Chambilda saylagan yigitiga nikoh qilib, to‘y berdi. Hamma chambilliklar o‘ynab-kulib, uy-uylariga tarqalib, murod-maqsadlariga yetdilar.